**UDC (UO‘K, УДК): 81-25**

***Raimova Nafosat Olimovna***
*O’zDJTU mustaqil izlanuvchisi*
*Toshkent, O’zbekiston*
*Email:* nafosatraimova85@gmail.com
*Tel: +998 90 902 98 94*
*ORCID ID:0009-0009-1345-8946*

# IJTIMOIY CHEGARALANGAN LEKSIKANING JAMIYATDAGI ROLI VA MUHIMLIGI

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola jamiyatda ijtimoiy chegaralangan leksikaning o‘rni va ahamiyati haqida. Maqolada ijtimoiy chegaralangan leksikaning mazmuni va uning jamiyatdagi roli o'rganiladi ya’ni unda ijtimoiy cheklangan leksikaning ta'rifi va jamiyat uchun muhimligi tahlil qilinadi. Ijtimoiy cheklangan leksika ma'lum ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos tilidan iborat bo'lib, u guruhlarning madaniyatini, ijtimoiy holatini va tarixiy tajribalarini ifodalaydi. Ijtimoiy chegaralangan leksikaning jamiyatdagi o‘rni va muhimligi, guruhlar o‘rtasidagi muloqotdagi ahamiyati, identifikatsiya yaratish va madaniy farqni aks ettirish kabi rol va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Maqola guruhlar o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash, identifikatsiya shakllantirish va ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettirishda leksikaning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada guruhlar o‘rtasida muloqot samaradorligini oshirishda leksikaning roli ko‘rib chiqiladi [1].

Mazkur maqolada ijtimoiy chegaralangan leksikaning jamiyatdagi ahamiyati va o‘rni sotsiolingvistik, funksional hamda stilistik nuqtai nazardan chuqur tahlil etiladi. Sleng, jargon va argo birliklarining ijtimoiy identifikatsiya, kommunikativ samaradorlik va ekspressivlikni ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy manbalar orqali yoritiladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy chegaralangan leksikaning jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va madaniy jarayonlarning muhim belgilari ekanligini tasdiqlaydi.

Maqolada, shuningdek, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan ijtimoiy chegaralangan leksikaning tarqalishi va jamiyatdagi ahamiyati yanada ortganligi qayd etiladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan yangi so‘zlar, iboralar va hastaglar yuzaga kelmoqda, bu esa leksikaning kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘ziga xos so‘z birikmalari shakllanib, guruhlarning fikrlarini tez va samarali bayon etish imkoniyatini taqdim etmoqda [2].

Shu tariqa, maqolada jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarga ijtimoiy chegaralangan leksikaning qanday javob berishiga ham e'tibor beriladi. Bunday leksik guruhlar ijtimoiy o'zgarishlar, noroziliklar yoki yangiliklarni ifoda etish va aks ettirish

uchun xizmat qiladi. Shu sababli, ijtimoiy chegaralangan leksika jamiyatdagi turli tabaqalar o‘rtasidagi aloqaning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar**: ijtimoiy chegaralangan leksika, madaniy identifikatsiya, ijtimoiy guruhlar, muloqot, jamiyat, ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy o‘zgarishlar.

## РОЛЬ И ВАЖНОСТЬ СОЦИАЛЬНО СВЯЗАННОЙ ЛЕКСИКИ В ОБЩЕСТВЕ

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена роли и значению социально ограниченного лексикона в обществе. В статье изучается содержание социально ограниченного лексикона и его роль в обществе, то есть анализируется определение социально ограниченного лексикона и его значение для общества. Социально ограниченный лексикон представляет собой специфический язык определенных социальных групп, выражающий культуру, социальный статус и исторический опыт этих групп. Роль и значение социально ограниченного лексикона в обществе включают такие роли и функции, как его значение в коммуникации между группами, формировании идентичности и отражении культурных различий. В статье анализируется значение лексикона в улучшении коммуникации между группами, формировании идентичности и отражении социальных изменений. В статье рассматривается роль лексикона в повышении эффективности коммуникации между группами.

В данной статье глубоко анализируется значение и роль социально ограниченного лексикона в обществе с социолингвистической, функциональной и стилистической точек зрения. На основе научных источников подчеркивается значение единиц сленга, жаргона и арго в обеспечении социальной идентификации, коммуникативной эффективности и выразительности. Результаты исследования подтверждают, что социально ограниченный лексикон является важным признаком социальной стратификации и культурных процессов в обществе.

В статье также отмечается, что с развитием информационных технологий и социальных сетей распространение и значение социально ограниченного лексикона в обществе возросли. С развитием интернета и социальных сетей появляются новые слова, фразы и хэштеги, что приводит к расширению лексикона. В социальных сетях формируются уникальные словосочетания, предоставляющие возможность быстро и эффективно выражать мнения групп.

Таким образом, в статье также уделяется внимание тому, как социально ограниченный лексикон реагирует на социальные изменения в обществе. Такие лексические группы служат для выражения и отражения социальных

изменений, протестов или нововведений. Следовательно, социально ограниченный лексикон играет важную роль в развитии коммуникации между различными классами в обществе.

**Ключевые слова:** социально ограниченный лексикон, культурная идентичность, социальные группы, коммуникация, общество, социальные сети, социальные изменения.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF SOCIALLY BOUND VOCABULARY IN SOCIETY

**ABSTRACT**

This article is about the role and importance of socially restricted lexicon in society. The article studies the content of socially restricted lexicon and its role in society, that is, it analyzes the definition of socially restricted lexicon and its importance for society. Socially restricted lexicon consists of the specific language of certain social groups, which expresses the culture, social status and historical experiences of the groups. The role and importance of socially restricted lexicon in society includes such roles and functions as its importance in communication between groups, creating identity and reflecting cultural difference. The article analyzes the importance of lexicon in improving communication between groups, forming identity and reflecting social changes. The article considers the role of lexicon in increasing the effectiveness of communication between groups.

This article deeply analyzes the importance and role of socially restricted lexicon in society from a sociolinguistic, functional and stylistic perspective. The importance of slang, jargon and argot units in ensuring social identification, communicative efficiency and expressiveness is highlighted through scientific sources. The results of the study confirm that socially limited lexicon is an important sign of social stratification and cultural processes in society.

The article also notes that with the development of information technologies and social networks, the spread and importance of socially limited lexicon in society have increased. With the development of the Internet and social networks, new words, phrases and hashtags are emerging, which is leading to the expansion of the lexicon. Unique word combinations are formed in social networks, providing an opportunity to quickly and effectively express the opinions of groups.

Thus, the article also pays attention to how socially limited lexicon responds to social changes in society. Such lexical groups serve to express and reflect social changes, protests or innovations. Therefore, socially limited lexicon plays an important role in the development of communication between different classes in society.

**Keywords:** socially restricted lexicon, cultural identity, social groups, communication, society, social networks, social change.

## KIRISH

Til - jamiyat mahsuli bo‘lib, unda ijtimoiy tuzilma, madaniy qadriyatlar va guruhiy aloqalar namoyon bo‘ladi. Jamiyatda turli ijtimoiy qatlamlar, kasbiy toifalar, yosh guruhlar va submadaniyatlar mavjud bo‘lib, har birining o‘ziga xos nutq xususiyatlari bor. Shu jarayonda ijtimoiy cheklangan leksika paydo bo'ladi [3].

Ijtimoiy chegaralangan leksika muayyan ijtimoiy guruh oralig‘ida ishlatiladigan va umumxalq tilidan semantik yoki stilistik jihatdan farq qiladigan birliklar deb ataladi. Bu hodisa sotsiolingvistika sohasida til va jamiyat orasidagi aloqani tadqiq etishda ahamiyatli ob'ektdir [4].

Zamonaviy globallashuv sharoitida, xususan internet aloqa Ijtimoiy chegaralangan leksika muayyan ijtimoiy guruhning doirasida ishlatiladigan, umumiy til bilan bir oz farq qiluvchi til birliklari deb ataladi. Ular ko‘pincha slang, jargon va argo shaklida ko‘rinadi. Zamonaviy jamiyatda, ayniqsa yoshlar so’zlashuvida, internet aloqalarida va kasbiy sohalarda bunday birlashmalar ko'p uchraydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – ijtimoiy chegaralangan leksikaning jamiyatdagi o’rni va ahamiyatini aniqlash, shuningdek, uning asosiy funksiyalarini ilmiy asosda tushuntirishdir.

## TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy va sotsiolingvistik metodlardan foydalanildi. O‘zbek, rus va ingliz tillaridagi sleng, jargon va argo birliklari matnlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va lug‘at manbalari o‘rganildi [5].

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

tavsifiy (deskriptiv) metod;
sotsiolingvistik tahlil;
qiyosiy tahlil;
kontekstual tahlil;
funksional-stilistik yondashuv.

Material sifatida o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi sleng, jargon va argo birliklari olindi. Internet manbalari, badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalari matnlari tahlil qilindi [6].

## NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy chegaralangan leksika bir nechta muhim vazifalarni bajaradi.

1. Identifikatsiya vazifasi. Ushbu leksika shaxsning belgilangan guruhga tegishliligini ko‘rsatadi. Masalan, yoshlar slengi orqali yosh avlod o‘z ijtimoiy pozitsiyasini namoyish qiladi.

2. Kommunikativ vazifa. Kasbiy jargon mutaxassislar o‘rtasida tez va aniq ma’lumot almashish uchun xizmat qiladi. Masalan, IT sohasida 'bug', 'update', 'login' kabi atamalar keng tarqalgan.

3. Ekspressiv vazifa. Sleng so'zlari nutqqa hissiy rang berib, muloqotni jonlantiradi.

4. Madaniy vazifa. Argo va sleng submadaniyatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega [7].

**1. Ijtimoiy chegaralangan leksikaning turlari**

a) Sleng

Sleng ko'proq yoshlar nutqida uchraydi va emotsional-ekspressiv rangga ega.

Masalan:

o'zbek tilida: gap yo'q, zo'r, kruto;

ingliz tilida: cool, awesome, chill;

rus tilida: классно, прикол.

b) Jargon

Jargon maxsus kasb yoki ijtimoiy guruhga oid odamlar uchun xosdir.

Masalan:

talabalar nutqida: sessiya yopildi, kontraktga tushdi;

IT sohasida: bug, update, login;

tibbiyotda: anamnez, reanimatsiya (professional jargon sifatida).

c) Argo

Argo ko'pincha yopiq guruhlarda (masalan, jinoyatchilar) foydalaniladi va ma'no yashirish vazifasini bajaradi.

**2. Ijtimoiy chegaralangan leksikaning jamiyatdagi o'rni**

1) Identifikatsiya vazifasi

Bunday leksika shaxsning belgilangan ijtimoiy guruhga tegishliligini ko'rsatadi. Masalan, yoshlar slengi orqali yosh avlod o'zini alohida ijtimoiy qatlam sifatida namoyish qiladi.

2) Kommunikativ qulaylik

Kasbiy jargon mutaxassislar o'rtasida axborotni tez va aniq yetkazish uchun xizmat qiladi.

3) Ekspressivlik

Sleng so'zlari nutqqa emotsional rang berib, fikrni kuchaytiradi.

4) Madaniy identifikatsiya

Ijtimoiy chegaralangan leksika submadaniyatlarning shakllanishida muhim o'ringa ega (masalan, internet madaniyati, blogerlar tili).

**3. Zamonaviy jamiyatda ahamiyati**

Globallashuv va raqamli aloqa natijasida ijtimoiy chegaralangan leksika tez tarqalmoqda. Internet orqali inglizcha sleng so'zlari o'zbek va rus tillariga kirib kelmoqda (like, trend, story).

Bu jarayon tilning dinamik rivojlanishiga hissa qo'shadi, lekin adabiy til me'yorlariga ham bir qadar ta'sir ko'rsatadi [8].

## MUHOKAMA

Ijtimoiy chegaralangan leksika jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni aks ettiruvchi til vositasidir. U tilning dinamik rivojlanishiga yordam beradi va yangi semantik qatlamlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Biroq, adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan, bu birliklarning cheklangan doirada ishlatilishi maqsadga muvofiqdir. Til taraqqiyoti va me'yor o'rtasidagi muvozanatni saqlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy chegaralangan leksika tilning "pastki qatlami" sifatida qaralsa-da, u jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichdir [9].

Til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aynan shunday leksik birliklar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Biroq, bunday birliklarning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi adabiy til me’yorlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ularni funksional doirada qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy cheklangan leksika jamiyatning ijtimoiy va madaniy tuzilishini ko'rsatadi. U identifikatsiya, muloqot va ifodali funksiyalarni amalga oshiradi. Globallashuv jarayonida uning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Shu sababdan ushbu hodisani ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim vazifa sifatida qabul qilinadi.

Ijtimoiy chegaralangan leksika tillarda jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning lingvistik ko'rsatilishidir [10].

U identifikatsiya, muloqot va ifoda funksiyalarini amalga oshiradi. Zamonaviy raqamli makonda uning ahamiyati yanada oshmoqda.

Til rivojlanishida bunday leksikaning roli ahamiyatli, ammo adabiy me’yor ichida nazorat qilinishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia, 1972.
2. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge, 2006.
3. Hudson R. Sociolinguistics. – Cambridge, 1996.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2020.
5. Yartseva V.N. Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar. – Moskva, 1990.
6. Wardhaugh, R., & Fuller, J. (2015). An Introduction to Sociolinguistics. Wiley-Blackwell.
7. Karimov S.. Ijtimoiy shevalar va ularning o‘zbek tilidagi ifodalari // Tilshunoslik jurnali, 2019.-3(4), 45-53.
8. Allan, K., & Burridge, K. (2006). Forbidden Words: Taboo and the censoring of language. Cambridge University press.
9. Tursunov B. Ijtimoiy chegaralangan leksika va uning semantik tahlili. filologiya fanlari doktori, Toshkent. -2018
10. Raimova N. Ingliz va o‘zbek tillarida ijtimoiy chegaralangan leksikaning struktur semantik hamda stilistik xususiyatlari, Toshkent, 2025